



**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**



FAN:

**Mashinalardan foydalanish
va texnik servis**

**MAVZU:
№ 5**

**Respublikamizda faoliyt ko'rsatayotgan texnik servis
korxonalari. Texnik servis tuzilmasi.(4 coat)**



SHARIPOV ZAYNIDDIN SHARIPOVICH

**Muhandislik tizimlarini boshqarish
kafedrasi dotsenti, t.f.n.**



O‘ZBEKISTONDA FAOLIYAT KO‘RSATAYOTGAN SERVIS XIZMATLARI FAOLIYATI REJA:

Respublikamiz va Xorijiy mamlakatlarning fermer xo‘jaliklari haqida qisqacha ma‘lumotlar.

Respublika qishloq xo‘jaligi xududlarida texnik servis (TS) holati va muammolari.

Firmaviy TS tuzilmasi va texnologiyasining tahlili

Qishloq xo‘jaligi xududlarida texnik servisni tashkil etishda dilerlik xizmatining o‘rni.

Adabiyotlar:

1.Igamberdiev A, Aliqukov S. Traktorlar va qishloq xo‘jalik mashinalaridan foydalanish, texnik servis. T., 2020. – 283 b (o‘quv qo‘llanma).

2.Sharipov Z.SH., Berdumuratov P.T. Xakimov B.B. “Mashina traktor agrigatlarini diagnostikalash va texnik servis”. O‘quv qullanma. T.TIQXMMI MTU.2021. -179 b.

3.Toshboltaev M, Rustamov R, Kobilov M. Kishlok xujaligida xududiy firmaviy texnik servis sistemasi. «Fan nashriyoti» 2007 y. 146 b.

4.Korneev V, Aleksandrina A. Dilerskaya forma organizasiya servisa. Sel’skiy mexanizator 2006g №4 st 38-39.

Fermer xo‘jaliklari ayniqsa AQSh va Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida keng quloq yoygan va ular boy tajribaga ega.

AQSh qishloq xo‘jaligida yerga egalik qilishning xilma-xil shakllari mavjud:

to‘liq ijarachilar, bular-erni ijaraga olib, qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fermerlar:

qisman ijarachilar, bular-qisman o‘z xususiy yerlari bo‘lgani holda, boshqa joylardan qo‘shimcha ravishda ijaraga yer olib, qishloq xo‘jaligi bilan mashg‘ul bo‘lgan fermerlar:

qisman ijarachi va ijaraga yer beruvchi yer egalari, bular-qisman o‘z xususiy yerlari bo‘lgani holda, boshqa joylardan qo‘shimcha ravishda ijaraga yer oluvchi va ayni paytda ijaraga yer beruvchi fermerlar:

er egasi bo‘lmish fermerlar, bular o‘z tasarrufidagi yerda qishloq xo‘jaligi ishlari bilan shug‘ullanadi hamda yerning bir qismini ijaraga beradi:

xususiy yer egalari, bular-erga egalik qiluvchi, lekin qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida bevosita qatnashmaydigan, yerini esa ijaraga topshiradigan shaxslar.

AQShdagi fermerlarning

- ❖ 64% ini qisman ijarachi va ijaraga yer beruvchi yer egalari,
- ❖ 17% ini qisman ijarachilar,
- ❖ 11% ini to'liq ijarachilar,
- ❖ 4% ini yer egasi bo'lmish fermerlar
- ❖ 4% ini xususiy yer egalari tashkil qiladi.

Fermer:

- ❖ ishlab chiqarishning real imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning mazmuni, yo'nalishi va tarkibini mustaqil ravishda belgilaydi:
- ❖ iqtisodiy manfaatini ko'zlab, o'zida yetishtirgan mahsulotni realizasiya qilish (sotish) yo'llarini izlaydi:
- ❖ daromatni ishlatishni (davlat solig'idan tashqari) uni o'z ixtiyoricha ishlab chiqarishni kengaytirish va iste'mol qilish uchun sarflashni chamalaydi:
- ❖ xo'jalik sohasidagi sheriklarini o'z hohishi bilan tanlaydi hamda ular bilan hamkorlik shaklini belgilaydi.

Fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydoni:

- **AQShda - 150 ga**
- **Kanadada – 190 ga**
- **Buyuk Britaniyada – 70 ga**
- **Fransiyada – 35 ga**
- **Daniyada – 32**
- **Olmoniyada – 18 ga**
- **Ispaniyada – 16 ga**
- **Italiyada – 8 ga**
- **Gresiyada - 6 ga**
- **O'zbekistonda - 100 ga.**
- **Bir traktorga AQShda o'rtacha 40 ga yer to'g'ri keladi, Fransiyada – 28 ga, Olmoniya va Italiyada 18-20 ga, O'zbekistonda 100 ga yer to'g'ri keladi.**

RESPUBLIKAMIZDA XUDUDIY TEKNIK SERVIS TIZIMI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHDA QUYIDAGI QO'SHMA KORXONALAR VA KOMPANIYALAR FAOLIYAT KO'RSATIB KELISHGAN

- **«O'zKeysservis» qo'shma korxonasi.**
- **«O'zKeysmash» O'zbekiston-Amerika qo'shma korxonasi.**
- **«O'zKeystraktor» qo'shma korxonasida.**
- **«O'zKlasservis» qo'shma korxonasi.**
- **«Keys Nyu Xolland» kompaniyasi.**
- **«O'zKeystraktor» va «O'zKeysmash» qo'shma korxonalari.**
- **“O'zmeliomashlizing” DUK.**
- **“Meliomashlizingservis” MChJ.**
- **“Amkodor-Toshkent” XK MChJ.**

«O‘zKeysservis»ning viloyatlar Servis markazlari zamonaviy texnika vositalarini aniq diagnostika qilish, barcha TS va ta'mirlash ishlarini qisqa vaqt ichida hamda jahon andozalariga mos ravishda bajarish imkonini beradigan maxsus asboblardan va uskunalardan bilan jihozlangan.

«O‘zKeysservis»ning viloyat Servis markazlarida zamonaviy texnika vositalarining quyidagi uzal va agregatlarini kapital ta'mirlashni yo‘lga qo‘ygan:

- ❖ yonilg‘i nasoslari ta'miri.
- ❖ shinalar ta'miri.
- ❖ tirsakli vallarni silliqlash va blok teshiklarini yo‘nish.
- ❖ generatorlar va startyorlar ta'miri.
- ❖ gidravlik shlanglarni ta'mirlash va ishlab chiqarish.
- ❖ «Kamminz» dvigatellari ta'miri.
- ❖ turbokompressorlar ta'miri.
- ❖ gidroakkumulyatorlar ta'miri.

«O‘zKeysservis» qo‘shma korxonasida yuqorida nomlari keltirilgan uzal va agregatlarni ta'mirga qabul qilish, ularning ta'mirini tashkil etish va ta'mirdan chiqarilganlarini egalariga qaytarishning operativ tartibi yo'lga qo'yilgan.

Viloyat Servis markazining dispetcheri to'planib qolgan nosoz uzal va agregatlarni tuzatish bo'yicha «O‘zKeysservis» bosh ofisidagi Servis markaziga ma'lumot beradi.

Bosh Servis markazi buyurtmachi viloyatga tezyurar yuk avtomashinasini jo'natadi va u yerdagi nosoz uzal va agregatlarni Markazga olib keladi.

Markazning ta'mirlash va extiyot qismlar bo'yicha mutaxassislari ta'mirtalab uzal va agregatlarni turlari bo'yicha saralab, so'ngra ularni viloyatlardagi tegishli ixtisoslashtirilgan sexlarga jo'natadi.

Ta'mirdan chiqarilgan soz holatdagi uzal va agregatlar bosh Servis markazga olib kelinadi va o'z buyurtmachilariga, ya'ni ularni yuborgan viloyat Servis markazlariga jo'natiladi.

O'ZKEYSSERVIS QO'SHMA KORXONASI TOMONIDAN ZAMONAVIY TEXNIKA VOSITALARIGA KO'RSATILAYOTGAN FIRMAVIY TEXNIK SERVISNING TUZILMASI



“Meliomashlizing servis” MChJ tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat turlari

Joriy texnik xizmat ko‘rsatish

Kafolat muddati davrida ta'mirlash

Reklamasi dalolatnomalarini qabul qilish

Кафолат муддатидан кейинги таъмирлаш

Texnik holatni lizing davridagi monitoringi

Texnik o‘quv seminarlar o‘tkazish

KAFOLAT MUDDATI DAVOMIDA SERVIS XIZMATI KO'RSATISH

- + Lizingga berilgan texnikalarga servis xizmati ko'rsatishga ixtisoslashgan "MELIOMASHLIZING SERVIS" MChJ va uning viloyatlarda 13 ta hududiy filiallari tashkil etilib, faoliyati to'liq yo'lga qo'yilgan.**
- + 50 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan va ushbu ish o'rinlari injener-texnik xodimlar bilan butlangan.**

KAFOLAT MUDDATIDAN KEYIN SERVIS XIZMATI KO‘RSATISH


- ✘ Joylardagi Lizing oluvchi tashkilotlar va servis markazi o‘rtasida ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan berilgan kafolat muddatlari tugagan texnikalarga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar imzolanadi.
- ✘ Texnikalardagi yuzaga keladigan nosozliklar bo‘yicha joylardagi lizing oluvchilardan talabnomalar qabul qilinadi va ushbu talabnomalarga asosan servis markazi tomonidan joylarga chiqib mavjud nosozliklarning kelib chiqish sabablari bo‘yicha dalolatnomalar tuziladi hamda ular bartaraf qilinadi.
- ✘ Xitoyning gidravlik ekskavator va buldozer ishlab chiqaruvchi “**Guangxi Liugong Machinery**” kompaniyasi bilan texnikalar bilan ta‘minlash masalasi bo‘yicha hamkorlik qilinib kelinmoqda

Tahlillar ko'rsatadiki, xorijda firmali texnik servisning tashkiliy tuzilmasi **firmalar-mashina ishlab chiqaruvchilar, firmalarning yangi texnika importyorlari (general agentliklar) va dilerlardan iborat.**

Firmali texnik servisning tashkiliy shakli va tuzilmasi turli davlatlarda turlicha ko'rinishga ega firma-ishlab chiqaruvchiga o'zi ishlab chiqargan mashinalarning butun foydalanish davridagi texnik holati uchun javobgarligi umumiy tamoyil hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarda ko'p yillar davomida to'plangan tajribalar natijalarining ko'rsatishicha, firmali texnik servisni tashkil qilishning maqbul (rasional) shakli - **bu dilerlik tizimidir.**

AMERIKA, ANGLIYA, GERMANIYA, GOLLANDIYA KABI XORIJIY DAVLATLARDA FIRMALI TEXNIK SERVISNING TIZIMI (DILERLIK TIZIMI) ASOSAN UCHTA ZONADAN IBORAT: MASHINASOZLIK KORXONASI, DILER VA FERMER XO‘JALIKLARI



Xorijiy firmalarning fermer xo‘jaliklariga dilerlik faoliyati ko‘rsatuvchi tuzilmasi

Xorijiy firmalarning fermer xo'jaliklariga dilerlik faoliyati ko'rsatuvchi tuzilmasida dilerlik korxonalari (dilerlar) **ikki xil qaram va mustaqil** shaklda faoliyat ko'rsatadi.

Qaram dilerlar faqat bitta mashinasozlik firmasi bilan faoliyat ko'rsatadi, yangi texnikalarni sotadi va texnik servisni bajaradi. Keyingi yillarda qaram dilerlar mashinasozlik kompaniyalari vakillari sonining kamayish va aksincha, mustaqil dilerlar sonini ko'payish tendensiyalari kuzatilmoqda.

Mustakil dilerlar mashinasozlik kompaniyalari yoki firmalardan mustaqil bo'lgan yuridik sub'ekt. Mustaqil dilerlik korxonalari bu, asosan oilaviy tashkilotlar bo'lib, bir vaqtning o'zida bir necha yirik kompaniyalarning lisensiyalari asosida ishonchli darajada faoliyat ko'rsatadi va firmaviy servisni amalga oshiradi.

Xorijda buyurtmachilarga (fermerlarga) xizmat ko'rsatishda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- ✘ buyurtmachi o'zining texnik nosoz texnikasini ta'mirlash oldidan undagi nosozliklar turi, holati hamda bajarilishi rejalashtirilayotgan ishlar ro'yhati va bahosini oldindan tekshirib oladi;**
- ✘ buyurtmachi faqat o'zi tanlab buyurtma bergan va bajarilgan ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish ishlari uchun haq to'laydi;**
- ✘ ta'mirlash va TS tadbirlari yuqori malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi;**
- ✘ bajarilgan remont va TS ishlar uchun to'lovlar aniq hisob-kitoblar asosida amalga oshiriladi. Buyurtmachi diler tomonidan qilingan hisob-kitoblarni to'g'riligini tekshirishga haqlidir.**

Dilerlar fermerlarga va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi sub'ektlarga quyidagi kompleks xizmatlar ko'rsatadi:

- ✘ iste'molchilarning yangi mashina, mexanizm va qurilmalar hamda xizmat turlariga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish, ularni jamlash, tahlil qilish va buyurtmalar portfelini shakllantirish;
- ✘ buyurtmalarga asosan ularga yangi mexanizm va qurilmalar hamda ehtiyot qismlarni yetkazib berish;
- ✘ yangi mashina va mexanizmlarni sotishga tayyorlash (yig'ish, chiniqtirish va bu jarayonda sodir bo'lgan ayrim kamchiliklarni bartaraf etish);
- ✘ o'z balansidagi mashina va mexanizmlarni mijozlarga ijara va prokatga berish;

- mijozlarning xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan yoki ma'naviy eskirgan mashinalarini sotib olish, ularni qayta tiklash va sotish;

- nosoz mashinalarga tashxis qo‘yish va ularga mavsumiy hamda yillik texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini bajarish;

- nosoz mashinalarni ta'mirlash ustaxonalariga yetkazib borish va ularni ta'mirlash;

- iste'molchilarga o‘zlarining mustaqil ta'mirlash va TS bazalarini tashkil etishda uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish;

~~«Jon—Dir» va «Interneyshn» firmalarining xizmat koʻrsatish radiusi 40...50 km boʻlgan kichik diler korxonalarini tashkil etadilar.~~

«Kaperpillar» firmasi dilerlari esa katta radiuslarda xizmat koʻrsatadilar.

Dilerlar yangi texnikani sotish bilan birgalikda eski texnika savdosini ham oʻtkazadilar.

Rossiya Federasiyasining Rostov oblastida «Belorusya Servis» dilerlik markazi ochilgan.

Rossiyaning bir qator xududlarida ham mijozlarga yangi texnika vositalari va ehtiyot qismlarni sotish boʻyicha dilerlik tizimlari tuzilgan.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tashkilotlar, MTPlari va fermerlar ixtiyoridagi mavjud texnikalarini ta'mirlash, ularga TS va TXK sifati va salmog'ini oshirishda ularga bevosita xizmat ko'rsatuvchi texnikalar majmuasi uchun faoliyat ko'rsatadigan **mustaqil dilerlik** shahobchalari orqali tashkil etilishi samara berishi mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI:

- 1. Respublikamiz va Xorijiy mamlakatlarning fermer xo'jaliklari haqida nimani bilasiz?**
- 2. Respublika qishloq xo'jaligi xududlarida texnik servis (TS) holati qanaqa va qanday muammolari mavjud?**
- 3. Qishloq xo'jaligi xududlarida texnik servisni tashkil etishda dilerlik xizmatining o'rni nimadan iborat?**
- 4. Dilerlik xizmatining necha xil turi mavjud?**
- 5. Qaram diler deganda nimani tushunasiz?**
- 6. Mustaqil diler deganda nimani tushunasiz?**
- 7. Qaram diler bilan mustaqil dilerning bir-biridan farqi nimada?**



**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**



E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!



**SHARIPOV ZAYNIDDIN
SHARIPOVICH**



“Muhandislik tizimlarini
boshqarish” kafedrası
dotsenti. t.f.n.



 + 998 71 237 05 86

 [Z.Sharipov @tiame.uz](mailto:Z.Sharipov@tiame.uz)

 Zayniddin Sharipov